

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KENESININ
QARARI**

2023 - yil 2 - noyabr

385-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Chimboy tumani “Guliston” MFY hududidan
doimiy foydalanish huquqi asosida yer maydoni ajratish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 3-moddasi, "Yer to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 4-moddasi va “Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida”gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 35-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida”gi 543-son qaroriga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyasi DUKning 2023-yil 30-oktabrdagi 01/4-8/2084-sonli buyurtma xatini inobatga olib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish vazirligi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari hamda kelishuvlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Chimboy tumani hokimligi zaxira yer fondida turgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlardan davlat va jamoat ehtiyoji uchun doimiy foydalanishga berilayotgan yer uchastkasiga “Guliston” MFY hududidan maktab binosi qurilishi uchun 1,5 gektar yer maydoni ilovaga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyasi DUKga doimiy foydalanish huquqi asosida o'rnatilgan tartibda ajratib berilsin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyasi DUK (I.Niyazov) belgilangan tartibda:

- ajratilgan yer maydonlariga qurilish loyiha hujjatlarini rasmiylashtirish;
- ajratilgan yer maydonlarida qurilish ishlarini tegishli vakolatli tashkilotlar tomonidan berilgan loyihalar va texnik shartlarga amal qilgan holda amalga oshirish;
- ajratilgan yer uchastkalarida qurilish ishlarini davlat va jamoat ehtiyoji

uchun doimiy foydalanishga berilayotgan yer uchastkasiga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin boshlash choralarini ko'rsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi (S.Urunboyev) mazkur qarorga muvofiq yer fondiga o'rnatilgan tartibda tegishli o'zgartirishlar kiritсин.

5. Mazkur qarorning qonunchilikka muvofiq bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari Sh.Dauletiyarov zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog'iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F.Ermanov

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023-yil 2-noyabrdagi
385-13-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Qoraqalpog'iston Respublikasi CHimboy tumani «Konshi» MPJ yonidan
chegaradosh «Gulistan» MFY «Ayteke biy» kuchasi hududidan Maktab binosi
kurilishi uchun tanlangan yer uchaskasining
TARXI m-b 1:2000



Yer uchaskasi haqida qisqacha ma'lumotlar: Yer uchaskasi zaxira yer maydonlaridan bo'lib, sharqdan yol, g'arbdan ochiq maydon, janubdan ochiq maydon Shimoldan yol

Koordinatasi

1. 42°53'57,203" 59°47'19,302" 3. 42°53'56,615" 59°47'20,2"
2. 42°53'56,568" 59°47'19,42" 4. 42°53'53,089" 59°47'17,687"
5. 42°53'54,335" 59°47'12,639" 6. 42°53'56,717" 59°47'12,35"

Tuman markazidan 9,900 km. radius masofada

Yeruchastkasimaydoni (ga): 1.5 ga

Yer fondi: Tuman zaxira yer

Ta'qiqlanganligi: Yo'q

Qaysi maqsadda foydalansa bo'ladi: Maktab binosi kurilishi uchun

Yer turi: Qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar

Ball boniteti: Baholanmagan

Kadastr nomeri: 23:10:01:01:16:4016

L / #